



UO'K: 94:327(575.146-25)

Sunnatillo HAMRAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: hamrayevsunnatillo1989@gmail.com

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi PhD A. Tursunmetov taqrizi asosida

THE MAIN TRENDS IN THE RESEARCH ON DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE EMIRATE OF BUKHARA AND THE RUSSIAN EMPIRE DURING THE INDEPENDENCE PERIOD

Annotation

This article analyzes the historiography of diplomatic relations and embassy missions between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire during the years of independence. The study highlights the main research directions in examining this issue and reveals the gradual transformation of dominant perspectives established during the Soviet period. Historiographical analysis methods such as comparative, systemic and specific logical analysis were utilized. Furthermore, it draws attention to aspects of Bukhara–Russia relations that remain relatively understudied and insufficiently explored in previous researchs.

Keywords: Bukhara Emirate, Russian Empire, Central Asia, diplomatic relations, ambassador, historiography, sources.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПОСОЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется изучение посольских отношений и дипломатических отношений между Бухарским эмиратом и Российской империей в годы независимости. Раскрыты основные направления исследования данного вопроса и изменение приоритетных взглядов, установленных в советский период. В ней использованы такие методы историографического анализа, как сравнительный анализ, системный анализ и точный логический анализ. Кроме того, речь шла о относительно малоизученных и не полностью раскрытых аспектах истории бухарско-российских отношений.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, Центральная Азия, дипломатические отношения, посол, историография, источники.

MUSTAQILLIK DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O'RTASIDAGI ELCHILIK MUNOSABATLARINI O'RGANILISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik aloqalari va diplomatik munosabatlarning mustaqillik yillarida o'rganilishi tahlil etilgan. Ushbu masalani tadqiq etishdagi asosiy yo'nalishlar va sovet davrida o'rnatilgan ustuvor qarashlarning o'zgarib borayotganligi ochib berilgan. Unda qiyosiy tahlil, tizimli tahlil va aniq mantiqiy tahlil kabi tarixshunoslikning tahlil usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, Buxoro-Rossiya munosabatlari tarixining nisbatan kam o'rganilgan va to'liq ochilmagan jihatlariga xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Rossia imperiyasi, Markaziy Osiyo, diplomatik munosabatlar, elchi, tarixshunoslik, manbalar.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning tarixini o'rganish, har taraflama keng tadqiq etish, erkin yondashuvlar asosida yoritish boshlandi. O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan Buxoro amirligining (1756–1920) xalqaro munosabatlardagi ishtiroki, xususan, Rossiya imperiyasi bilan elchilik aloqalarini o'rganilishi hisoblanadi. Ushbu mavzuning o'rganilishi XIX asrdan boshlangan bo'lib, keyinchalik sovet davrida ham mazkur masala yuzasidan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi paytda ham Buxoro–Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari tarixi keng miqyosda tadqiq etilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida mazkur mavzuni o'rganishda yangi qarashlar ilgari surilmada. Shu sababli Buxoro–Rossiya elchilik munosabatlari mavzusining tarixshunoslik tahlilini olib borish orqali kam o'rganilgan jihatlariga tadqiqotchilarning e'tiborini qaratish muhim vazifa sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro–Rossiya elchilik munosabatlarining o'rganilishiga doir ko'plab tadqiqotlar mavjud. Xususan, sovet davrida ham ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borgan H. Ziyoyev[1] va X.G'ulomovlar[2] yana yangi yirik ishlarni nashr qilishgan

bo'lsalar, A. Xoliqulov[3] Buxoro amirligining tashqi siyosati doirasidagi tadqiqoti davomida XIX asr o'rtalariga qadar bo'lgan Buxoro–Rossiya munosabatlarining tizimli tahlilini amalga oshirgan. D. Valiyeva[4], B. Mannonov[5], L.B. Qodirova[6] O.A. Klichev[7] yozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida Buxoro–Rossiya elchilik munosabatlarini o'rgandi. Shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX Asr boshlarida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni R. Xoliqova tadqiq etgan[8]. Bundan tashqari, R.R. Alimova, M. Sodiqov, A.M. Malikov, Y. Avazov, Z. Xalilova, D.M. Jamolova, G.M. Taniyeva va boshqa tadqiqotchilarning bir nechta maqolalarini[9] kiritish mumkin.

Bundan tashqari geosiyosiy omil ya'ni, ingliz-rus raqobatchiligi va Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo mintaqasini bosib olishi mavzusiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Buxoro–Rossiya munosabatlariga e'tibor o'z-o'zidan ushbu davr tadqiqotlarida ham davom etdi, jumladan D.M. Nishonova[10], I. Egamberdiyev[11] ishlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va aniq mantiqiy tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar chuqur tadqiq qilingan yirik tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Xususan, X.G'.G'ulomov ushbu mavzu doirasida bir qator maqolalar[12] dissertatsiya monografiyalarini[13] ko'rsatish mumkin. Muallif ushbu tadqiqotlarda Buxoro-Rossiya diplomatik munosabatlariga ham keng to'xtalib o'tgan. Ushbu ish mavzuga xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan yondashuvi bilan mavzu yuzasidan amalga oshirilgan boshqa ishlardan katta farq qiladi. X.G'.G'ulomov tadqiqotida Buxoro amirligining ko'chmanchilar tomonidan talangan mollarning zararini undirib berishni Rossiya imperiyasidan so'ralishi ortida qozoq qabilalarini Rossiya yurisdiksiyasiga o'tganligini tan olinishi ekanligini qayd etadi[14]. Ushbu fikr mavzu tarixshunoslida birinchi bor o'rtaga tashlangan va muallif masalaga xalqaro diplomatik munosabatlari yuzasidan qaraganligi hamda Buxoroning qo'shni hududda bo'layotgan siyosiy jarayonga munosabat bildirganini ta'kidlashi bilan e'tiborlidir. Bundan tashqari, tadqiqotda ahamiyatli jihat sifatida elchiliklarning faoliyatiga oid sabab va natijalar xalqaro munosabatlar hamda siyosiy motiv nuqtayi nazaridan yoritilganligini e'tirof etish mumkin.

Buxoro-Rossiya munosabatlari masalasida X. G'ulomov XX asrning 80-yillarida boshlagan tadqiqotini mustaqillik yillarida tarixiy davr jihatidan davom ettirganligi kuzatiladi. Shu bilan birga elchilikka oid tarixiy jarayonlarda asosan Buxoro amirligining tashabbuskorligi hamda manfaatlarini yoritishga asosiy e'tibor qaratilishi yondashuvi saqlanib qolgan. Bundan tashqari, o'zaro diplomatik munosabatlarga "XIX asrning birinchi yarmida Rossiya va Buxoroning sanoat va savdoni rivojlantirish manfaatlariga asoslangan bo'lib, ular ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. O'zaro munosabatlardagi sovuqchilik va dushmanlik XIX asrning 60-yillari o'rtalarida, Rossiya o'zining tajovuzkor harakatlarini boshlaganida sodir bo'ldi[15]" deb, xulosa qilingan. Ushbu holatda sovet davrida o'rnatilgan qarashlarning qolipidan to'liq chiqilmaganligi ko'rinadi. Holbuki, Buxoro amirligiga yuborilgan elchi, harbiy xizmatchi va boshqa mutaxassislariga berilgan vazifalar hamda ularning to'plagan ma'lumotlari asosidagi hisobotlaridan Rossiya imperiyasining avval boshidanoq mintaqani bosib olishga tayyorgarlik ko'rish rejasi mavjudligi ma'lum bo'ladi.

O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi bilan elchilik munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan yana bir tadqiqot H. Ziyoyev tomonidan amalga oshirilgan[16]. Tadqiqotda muallif ta'kidlaganidek: "O'zbekistonning 300 yil mobaynida Rossiya bilan elchilik aloqasining o'rnatilishi va keng quloq yoyishi o'z aksini topgan. Unda elchilarning boshlaridan kechirgan qiyinchiliklari va azob-uqubatlari, talafotlari o'rin olgan"[17]. Mazkur tadqiqotda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar xususida keng to'xtalib o'tilgan hamda elchilikliklar qatnagan yo'llar bo'yicha tasniflab o'rganilgan. Muallif ushbu tadqiqot davomida ko'plab arxiv materiallarini ilmiy muomalaga kiritgan, shuningdek, foydalanilgan arxivlar nomi ham keltirib o'tilgan[18]. Tadqiqotda Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari qatnov yo'llari asosida o'rganilgan bo'lib, Kaspiy-Volga bo'ylari va Orenburg orqali bo'lgan elchilik qatnovlari, o'zaro elchilar almashinuvi va ularning faoliyati alohida-alohida o'rganilgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, tadqiqotda Buxoro-Rossiya o'rtasidagi elchilar almashinuvi jadval asosida, tartib bilan ro'yxat ko'rinishda shakllantirilgan[19]. Ammo, ikki davlat o'rtasidagi elchilar qatnovi xususida berilgan ushbu ro'yxatni, mukammal deb bo'lmaydi. Unda ayrim elchiliklar tushib qolganligini ko'rish mumkin. Jumladan, poruchik Subhonqulov elchiligi va uning 1809–1811-yillardagi elchilik

faoliyati xususida hech bir ma'lumot berilmagan[20]. Bunday misollarning bir nechtasini keltirish mumkin[21]. Biroq, ushbu jadvalni XIX asrning o'rtalariga qadar amalga oshirilgan Rossiya imperiyasi hamda Buxoro amirligi va Xiva xonliklari orasidagi elchilik munosabatlarini tartib bilan ko'rsatilgan shu paytga qadar bo'lgan yagona, nisbatan to'liq ish sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotning o'ziga xos ijobiy jihatlaridan biri sifatida elchiliklar tarkibining ismlari, ular olib borgan sovg'alar, savdogarlar mollarning tarkibi ro'yxat shaklida bayon qilinganini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, yorliq va maktublarning mazmuni ularga berilgan vazifalar, hukumat vakillari bilan suhbatlarni o'zida aks ettirgan hujjatlar ma'lumotlarining batafsil keltirilishi yana bir misol bo'la oladi. Shu bilan birga, elchiliklar faoliyatining siyosiy jarayonlarga ta'siri haqidagi xulosalar batafsil keltirilmagan bo'lib, asosiy e'tibor o'zaro sovg'a-salomlar almashinuvi va boshqa hodisalarga qaratilgan. Mazkur tadqiqot H. Ziyoyevning sovet davri mafkurasi tazyiqi ostida Buxoro-Rossiya elchilik aloqalarini o'rganish yuzasidan qilingan ishlarga nisbatan batafsil va "Rossiya imperiyasiga intilish" yondashuvidan chekingan holda amalga oshirilgan.

Buxoro amirligining diplomatik munosabatlar tarixiga oid masalalar M.M.Xayrullayev mas'ul muharrirligi ostida nashr etilgan "O'zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar"[22] nomli monografiyada yoritilgan. Ushbu tadqiqotda Buxoro-Rossiya elchilik munosabatlariga oid lavhalar D.Valiyeva va B.Mannonov tomonidan yozilgan bo'lib, bu ilgariroq "Sharqshunoslik" ilmiy jurnalida chiqqan bir qator maqolalarning yig'ilishi natijasida shakllantirilgan[23]. Shuni qayd etish joizki, mazkur tadqiqotlarda Buxoro-Rossiya diplomatik munosabatlari tarixiga xolislik bilan yondashilgan. Qolaversa, ushbu tadqiqotlar yozma manbalardan amalga oshirilgan tarjimalarning chop etilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu holat mazkur davrda o'rganilayotgan masala tarixshunosligida kuzatilgan yutuqlardan biridir.

So'ngi yillarda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik munosabatlari bir nechta dissertatsiyalar doirasida ham o'rganilgan. Jumladan, A.B.Xoliqulov "Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalari)" nomli doktorlik dissertatsiyasining uchinchi bobi mazkur masalaga bag'ishlangan. Unda asosan mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligining tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi bilan elchilik almashinuvarlari ham e'tibor qaratilgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy munosabatlar qatorida siyosiy aloqalarining kengayishi masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Xususan, XVIII asrning so'ngi choragida amalga oshirilgan Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga keng o'rin ajratilib, Mendiya Bekchurin, Polvonquli qo'rg'chi elchiliklarining faoliyati qisqa tarzda yoritilgan[24]. Mazkur tadqiqotda XIX asrning birinchi yarmida amalga oshirilgan deyarli barcha elchiliklar faoliyati xususan, mavzu tarixshunosligida nisbatan kam e'tibor qaratilgan Beknazar Abdulkarim o'g'li, Boltaquli Chig'atoybek Rahmatbek o'g'li, Qurbonbek Ashurbek o'g'li, Mulla Muqimbek Muhammadsaid, Xudayor Qoravulbegi, Xo'jamirzo Hayrullo miroxur kabi elchilar faoliyati va uning ikki davlatning o'zaro munosabatlaridagi ahamiyatini ochib berilgan[25]. A.B.Xoliqulov Buxoro-Rossiya XIX asrning birinchi yarmiga qadar bo'lgan munosabatlariga asosan ikki tomonning iqtisodiy manfaatdorligi nuqtayi nazaridan yondashgan[26]. Shuningdek, mazkur tadqiqotda Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan va harbiy harakatlar davom etgan davrdagi aloqalar xususida to'xtalib o'tilgan[27]. Umuman olganda mazkur tadqiqotning Buxoro-Rossiya munosabatlariga oid

qismini Buxoro amirligining tashqi siyosati nuqtayi nazaridan tizimli tadqiq etgan ish sifatida ko'rsatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu davrda Buxoro-Rossiya munosabatlari tarixi o'rganilishi davom etdi. Bu jarayonda sovet davridagi yondashuvlarning o'zgarishi, masalaga oid manba va rasmiy hujjatlarni manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi va tarjimalarining amalga oshirilishi

yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, masalaga oid bir qator yangi dissertatsion tadqiqotlar va qator maqolalar chop etilgan bo'lib, ushbu maqolalarda Buxoro-Rossiya munosabatlarning turli jihatlariga e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. Afsuski, ayrim maqolalar mazmunida bir-birining ma'lumotlarini takrorlash, shuningdek, masalaga ilmiy yondashuv mavjud amasligini ham qayd etib o'tish joiz...

ADABIYOTLAR

1. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. – Тошкент, 2014. – 472 б.
2. Гуломов Х.Г. Отношения России с Бухарой в конце XVIII в. // Вопросы истории. – М., 1991. – С. 222–226.; O'sha muallif. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. – Тошкент: Фан, 1992. – 107 с.;
3. Холикулов А.Б. Бухоро амирлигининг ташки сиёсий алоқалари (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX аср ўрталари). – Тошкент, 2022. – 268 б.
4. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи чорагида Бухоро–Россия дипломатия алоқаларига доир (Амир Ҳайдар мактубларини қиёсий ўрганиш асосида) // Шарқшунослик. 1999. № 9. – Б. 119-132.;
5. Маннонов Б. Поручик Сухонкулов миссияси // Шарқшунослик. 2000. №10. – Б. 125-142.; O'sha muallif. Ўзбек дипломатияси тарихи муаммолари // Шарқшунослик. 1993. № 4. – Б. 120-131.
6. Қодирова Л.Б. А.Г. Серебренников тўпламида Туркистон тарихи масалалари (1839-1876 йиллар): Тарих фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2021. – 58 б.
7. Кличев О.А. Россия императори сиёсий агентлиги ва Бухоро амирлиги ўртасидаги ёзишмалар Россия-Бухоро муносабатлари тарихини ўрганиш манбаси: Тарих фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Бухоро, 2018. – 155 б.;
8. Холикова Р.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлари тарихи: Тарих фан. доктор. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 295 б.;
9. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). – Тошкент, 2017. – 145 б.;
10. Нишонов Д.М. Англо-русский конфликт в Средней Азии в конце XIX в. в современной зарубежной литературе: Дисс. ... канд. ист. наук. – Тошкент, 1994. – С. 118.
11. Эгамбердиев И. Англия ва Россиянинг Марказий Осиёда мустамлакачилик сиёсатидаги рақобатлари (XIX аср ўрталари – XX аср бошлари). – Тошкент, 2018. – Б. 120.
12. Гуломов Х.Г. Отношения России с Бухарой в конце XVIII в. // Вопросы истории. – М., 1991. – С. 222–226; O'sha muallif. Дипломатические связи Средней Азии и России в XVIII – первой половине XIX века: историография проблемы. Ўзбекистон тарихи. 2005. № 4. – С. 31-43; O'sha muallif. Ханский посол в России // Xalqaro munosabatlar. – Тошкент, 2005, №3. – С. 98-102; O'sha muallif. Роль Казахской степи в истории межгосударственных отношений Бухары и России в последней четверти XVIII в. – SHYGYS – Алматы, 2005, №1. – С. 58-64.
13. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Ташкент, 2005. – 333 с.
14. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Ташкент, 2005. – С. 175.
15. O'sha asar. – С. 218.
16. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. – Тошкент, 2014. – 472 б.
17. O'sha asar. – Б. 8.
18. Batafsil qarang: Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. – Тошкент, 2014. – Б. 4-5.
19. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик... – Б. 183-190.
20. Маннонов Б. Поручик Субхонкулов миссияси // Шарқшунослик. 2000. № 10. – Б. 125-142.
21. Masalan. Qilichboyev, Mullajon Ashurboyev, To'qsoba Najmiddinxo'ja va boshqalarni ko'rsatish mumkin.
22. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар... 2003.
23. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи чорагида Бухоро–Россия дипломатия алоқаларига доир (Амир Ҳайдар мактубларини қиёсий ўрганиш асосида) // Шарқшунослик. 1999. № 9. – Б. 119-132.;
24. Холикулов А.Б. Бухоро амирлигининг ташки сиёсий алоқалари (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX аср ўрталари). – Тошкент, 2022. – Б. 106-107.
25. O'sha asar. – Б. 108-140.
26. O'sha asar. – Б. 121, 140, 161-162.
27. O'sha asar. – Б. 150-159.